

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA QO‘SHISH VA AYIRISHNI O‘QITISH
METODIKASI**

Ilmiy rahbar: Mavlonov Anvar

Toshkent amaliy fanlar universiteti

o‘qituvchisi v.b dotsent

Talaba: Durxo‘jayeva Nodira Sheraxmed qizi

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta‘limda matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri bu arifmetik amallarni, xususan, qo‘shish va ayirishni o‘rgatish hisoblanadi. Bu mavzu bolaning aqliy rivojlanishida, tafakkuri va fikrlash tezligida muhim o‘rin tutadi. Aynan arifmetik amallarni o‘rganish bolani kelajakda matematika fanini chuqurroq anglashga tayyorlaydi. Dastlabki sinflarda hisoblash, sanash, taqqoslash kabi elementar bilimlar qo‘yiladi. Bola kundalik hayotda ham bu bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi. Shuning uchun dars jarayonida eng avvalo, bolalarga bu harakatlarni maksimal darajada sodda, tushunarli va ko‘rgazmali qilib o‘rgatish kerak.

Kalit so‘zlar: Qo‘shish, ayirish, boshlang‘ich sinf, o‘qitish, metodika, amaliy topshiriq, didaktik usul, o‘yinli metod, bolalarda tafakkur, rivojlanish, matematik savodxonlik, natijani mustahkamlash, zamonaviy texnologiya, interfaol metod.

Boshlang‘ich sinfda amallarni mustahkamlash uchun avvalo bola uchun yaqin, oddiy, real vaziyatlar tahlil qilinadi. Masalan, uchta olмага yana ikkita olma qo‘shsang, yoki beshta sharchaning ikkitasi olib qo‘yilsa, nechta qoladi degan sodda va jonli misollar bolalarda mustaqil fikrlashga rag‘bat qo‘zg‘aydi. O‘quvchilarga har doim jonli buyumlar, ya‘ni sonlarni tasavvur qilish oson bo‘lgan predmetlar: buyumlar, karton ko‘rgazmalar, chizilgan tasvirlar, bir-biriga o‘xshash shakllar ko‘rsatiladi. Dars jarayonida bola doim faol qatnashishi, amalda natijani o‘zi topishi lozim. Bu tarzda boshlang‘ich bilimni ishlash ancha samaradorlik beradi va bola nafaqat arifmetik amalni tushunadi, balki javobni topishning bir necha usulini oson anglaydi. Boshlang‘ich sinfda qo‘shish — bu ko‘pchilik bolalar uchun suratli misollar, rangli rasm, qog‘ozdan kesilgan figuralar orqali o‘qitiladi. Masalan, darsda muallim bir chetga beshta nuqta qo‘yib, ularning ustiga boshqa joydan yana uchta nuqta olib qo‘yadi. Bolalar bu nuqtalarni sanaydi, birlashtiradi, yokida to‘plam sifatida hisoblaydi. Bu amalda natijaning ortib borishini bola o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Bolaga yangi natijani izohlash, og‘zaki so‘z bilan ifodalash, hayotiy vaziyatlardan misollar topish, birgina mashg‘ulot emas, balki ko‘p marotaba mashq qilish muhim [1].

Ayirish amalida esa, bolaga mavjud miqdordan belgilangan miqdorni olib, natijani topishni tushuntirish oson bo‘lishi uchun ko‘rgazmali usullar, ilojini topsa, o‘yinli metodlar ishlatiladi. Masalan, darsda bolaga sakkiz dona chiziqcha tasvirlanadi,

to'rttasi maxsus belgilanadi va ularni chizuvda yo'q qilib, qanchasi qolayotganini sanash topshiriladi. O'quvchilarga "Agar olmaning yarmisini do'stinga bersang, nechitasi qoladi?", "O'rmonning chekkasida yettidan uchta qush uchib ketdi, qancha qush qoldi?" kabi real misollar beriladi. Bola ko'zi bilan natijani ko'radi va izohlaydi. Boshlang'ich sinfda amallarni ustunlik bilan ko'rgazmali qurollar bilan o'qitish muhim sanaladi. Sababi bola uchun mavhum, soxta misollar avvalgi bosqichda jonli taassurot qoldirmaydi. Qo'shish va ayirishga oid darslarni mustahkamlash uchun o'qituvchi har bir darsda yangi jonli misollar, takroriy topshiriqlar va savol-javoblar orqali bilimni mustahkamlaydi. Dars o'yin bilan bezatilsa, har bir o'quvchi o'zini faol, erkin va intiluvchan xis qiladi. Bolalar dastlab og'zaki hisoblashga o'rgatiladi. Darsda ko'plab misollar berdiriladi hamda natija og'zaki topiladi, keyin esa asta-sekin yozma shaklda ifodalashga o'tiladi. Bolaga yozma amallarni avval quyi sonlarda, keyin bosqichma-bosqich murakkablanib boriladigan topshiriqlar orqali o'rgatilsa, natija sifatli va mustahkam bo'ladi[2].

Qo'shish va ayirish harakati bola miyasida tasvir, xayol va amaliy harakatlar orqaligina to'g'ri shakllanadi. Aynan harakat ustida ishlash orqali, o'quvchining xotirasi, diqqatini jamlashi, so'z boyligi va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Qanchalik jonli, hayotiy, harakatli usullar ko'proq qo'llansa, shuncha bola bilimni puxta egallaydi. Ayniqsa- ko'rgazmali, konkret predmetlar, o'yinli topshiriqlar, kichik guruhli mashg'ulotlar yaxshigina natija beradi. Darslarda muallim bolalarga ko'proq savol beradi va javobi noto'g'ri chiqsa ham, bolaning fikriga hurmat bilan yondashadi, xatorini to'g'ri yo'l bilan tushuntiradi. Bolalarning qiziqishi va individualligini inobatga olib, murakkablik darajasi sekin-sekin oshiriladi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'qitishni rejalashtirar ekan, bolalarda natija topishning turli usullarini ishlatishga urinish kerak. Masalan, so'z sanash, predmet sanash, barmoqlar bilan, ko'z bilan, jonli harakatda, rasm yoki tasvirda, qog'ozda, kartonda ko'rsatilgan shaklda amal qilinadi. Mashg'ulotlarni chiroyli o'yin va qiziqarli vaziyatlarga asoslash, guruhlar bilan, musobaqa, savol-javob, kichik drama ko'rinishida tashkil etsak, har bir bola o'z o'rnini topadi, faol va erkin bo'ladi [3].

Matematika topshiriqlari hayotiy misollar asosida olib boriladi. Masalan, bog'da uchta daraxt ekilgandi, yana ikki daraxt ekildi; jami nechta bo'ldi yoki olchada olti bola o'ynayapti, ularning uchtasi uyga ketdi, nechta bola qoldi? Bunday misollar bola xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Shu bilan birga, rasmi topshiriqlar, kartonli misollar, izohli chizmalar ko'proq ishlatiladi. Bolalarga tenglik, kamlik va ko'pligini izohlashda real predmetlardan ko'p foydalaniladi [4].

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda qo'shish va ayirish o'qitish metodikasi jonli, tasvirli, amaliy va bola uchun manzur tarzdagi misollar asosida olib borilsa, ilgari surilgan har bir bilim o'z miqyosida mustahkam bo'ladi,

bilim sifatli bo‘ladi. Interfaol va zamonaviy texnologiyalar, o‘yin va hayotiy vaziyatlarga asoslangan metodlar bolalarda matematik tafakkurni erta shakllantiradi, bola matematikani ham, kundalik hayotni ham ishonchli tasavvur bilan o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Nurmuhamedova, Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish metodikasi, O‘qituvchi, Toshkent, 2017, qismi 42-78-betlar
2. M. Xudoyqulov, O‘yinli metodika orqali boshlang‘ich matematika, Samarqand, 2021, qismi 53-84-betlar
3. I. Yo‘ldosheva, Boshlang‘ich matematika bosqichlari, Matematika va ta‘lim jurnali, 2020, 37-98-betlar
4. D. O‘razboyeva, Boshlang‘ich ta‘limda muammoli usullar, Farg‘ona, 2022, qismi 18-66-betlar
5. O‘zbekiston Respublikasi SSV, Boshlang‘ich sinfda fanlarni o‘qitish metodikasi, 2022, 68-132-betlar
6. Y. Karimova, Boshlang‘ich maktabda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining natijasi, Zamonaviy ta‘lim, 2023, 117-156-betlar